

**INVESTITSIYA SHARTNOMALARIDA BARQAROLASHTIRISH  
BANDLARI: XALQARO ARBITRAJ AMALIYOTI, MILLIY TARTIBGA  
SOLISHDAGI ZAIFLIKLAR VA ZAMONAVIY HUQUQIY MODEL**

**STABILIZATION CLAUSES IN INVESTMENT CONTRACTS:  
INTERNATIONAL ARBITRATION PRACTICE, WEAKNESSES IN NATIONAL  
REGULATION, AND A MODERN LEGAL FRAMEWORK**

*Egamberdiyev Tolibjon Ergashbek o'g'li,  
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,  
"Xalqaro biznes huquqi" yo'nalishi magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola investitsiya shartnomalaridagi barqarolashtirish bandlarining xalqaro arbitraj amaliyotida talqin qilinishi, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar investitsiya siyosatidagi barqarorlik mexanizmlari, shuningdek milliy tartibga solish tizimidagi tizimli zaifliklarni qiyosiy-huquqiy usulda tahlil etadi. Tadqiqotda 1977-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oluvchi 15 dan ortiq arbitraj qarorlari, ICSID, UNCTAD va OECD hujjatlari tahlil qilingan. Natijada barqarolashtirish bandlarining zamonaviy huquqiy modeli - besh elementli konsepsiya - taklif etilgan va O'zbekiston uchun qonunchilik darajasidagi aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** barqarolashtirish bandlari; investitsiya shartnomasi; xalqaro arbitraj; ICSID; barqaror rivojlanish; investor-davlat nizolari; O'zbekiston.

**Abstract:** This article examines the interpretation of stabilization clauses in investment contracts through international arbitration practice, the stability mechanisms in investment policies of developed and developing states, as well as systemic weaknesses in national regulatory frameworks using comparative legal methodology. The study analyzes over 15 arbitral awards spanning 1977 to 2023, along with key documents from ICSID, UNCTAD and OECD. The article proposes a modern five-element legal model for stabilization clauses and develops specific legislative recommendations for Uzbekistan.

**Keywords:** stabilization clauses; investment contract; international arbitration; ICSID; sustainable development; investor-state disputes; Uzbekistan.

## KIRISH

Investitsiya shartnomalaridagi barqarolashtirish bandlari - davlatning muayyan qonunchiligini o'zgartirmaslik yoki o'zgarish yuz berganda investorni kompensatsiya qilish majburiyatini belgilovchi shartnoma shartlari - xalqaro investitsiya huquqining eng munozarali va amaliy jihatdan eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi. 2022-yilga kelib dunyo bo'yicha 2,800 dan ortiq amaldagi ikki tomonlama investitsiya

shartnomasi (*BIT*) va yuzlab davlat-investor shartnomalari investitsiya muhitini barqarorlashtirish normalarini o‘z ichiga oladi [1].

Barqarorlashtirish bandlari amaliyoti bir qator keskin ziddiyatlarni o‘z ichiga oladi. Bir tomondan, ular chet el investitsiyalarini jalb qilish, investor ishonchini mustahkamlash va iqtisodiy o‘shishni qo‘llab-quvvatlash uchun zaruriy vosita. Ikkinchi tomondan, keng qamrovli yoki muvozanatsiz tuzilgan barqarorlashtirish bandlari davlatning tartibga solish suverenitetini, inson huquqlari va ekologik standartlarni yaxshilash imkoniyatini cheklab qo‘yishi mumkin. Bu ziddiyat xalqaro arbitraj doktrinasida ham, rivojlanayotgan davlatlar siyosatida ham faol muhokama qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi 50 dan ortiq BIT tuzgan, ICSID Konventsiyasiga a‘zo va 2017-yildan boshlab investitsiya muhitini faol isloh qilmoqda. Biroq milliy investitsiya qonunchiligi barqarorlashtirish mexanizmlari zamonaviy xalqaro standartlarga to‘liq javob bera olmayotganligini amaliyot ko‘rsatmoqda. Ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati aynan shu bo‘shliqni to‘ldirish zaruriyatidan kelib chiqadi.

## **I. XALQARO ARBITRAJ AMALIYOTIDA BARQARORLASHTIRISH BANDLARINING TALQINI: UCHTA DAVR TAHLILI**

Barqarorlashtirish bandlarini xalqaro arbitraj doirasida talqin qilish tarixi uchta aniq davrga bo‘linadi. Har bir davr o‘ziga xos yondashuv va ustuvorliklarni aks ettiradi.

***Birinchi davr (1970-1985): mutloq kafolat yondashuvi.*** Bu davrning eng ta‘sirli qarorlaridan biri - “Texaco Overseas Petroleum Co. v. Libya” (1977-yil) ishi. Arbitr Dupuy Lyubya hukumatining neft konsessiya bitimlarini bir tomonlama bekor qilishini xalqaro huquqni buzish deb topdi va barqarorlashtirish bandini “davlat o‘z suverenitetidan ozod bo‘lishiga rozi bo‘lish emas, balki huquqiy majburiyat olish” sifatida talqin qildi [2]. Bu qaror barqarorlashtirish bandining xalqaro arbitraj doirasidagi kuchini birinchi marta mustahkamladi va keyingi o‘n yilliklar uchun doktrinaga asos soldi.

Biroq ayni shu davrda BMT Bosh Assambleyasining 1974-yilgi “Davlatlarning iqtisodiy huquqlari va majburiyatlari Xartiyasi” barqarorlashtirish bandlariga “qarshi kuch” sifatida paydo bo‘ldi: 2-modda davlatning o‘z tabiiy resurslari ustidan to‘liq suverenitetini va milliyashtirish huquqini tasdiqladi [3]. Bu ziddiyat keyingi davr doktrinasining markaziy savoliga aylandi: barqarorlashtirish bandi qanday chegaralarga ega?

***Ikkinchi davr (1985-2005): muvozanat yondashuvining shakllanishi.*** “Kuwait v. Aminoil” (1982-yil) ishi barqarorlashtirish bandini talqin qilishda muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Tribunal barqarorlashtirish bandini “mutloq taqiq” emas, “kompensatsiya majburiyatini kuchaytiruvchi vosita” sifatida talqin qildi: davlat milliyashtirish huquqidan foydalana oladi, biroq band mavjud bo‘lganda to‘liq

kompensatsiya to‘lashi majburiy [4]. Bu yondashuv keyinchalik ICSID amaliyotida keng qo‘llanildi.

“Methanex Corporation v. USA” (NAFTA, 2005-yil) ishi zamonaviy “police powers” doktrinasini mustahkamladi. Tribunal Kaliforniyaning atrof-muhitni himoya qilish maqsadidagi MTBE taqiqini barqarorlashtirish majburiyatini buzmaydi deb topdi va qoidani belgiladi: umumiy, diskriminatsiyasiz va proporsional tartibga solish chorasi barqarorlashtirish bandiga zid emas [5]. Bu prinsip bugungi kunda xalqaro investitsiya huquqida mustahkam o‘rin egallagan.

**Uchinchi davr (2005-hozir): barqaror rivojlanish bilan integratsiya.** So‘nggi davr barqarorlashtirish bndlari doktrinasida ikkita keskin tendensiya kuzatiladi. Birinchisi - inson huquqlari va ekologiya standartlarining barqarorlashtirish doirasidan chiqarilishi. “Philip Morris v. Uruguay” (ICSID, 2016-yil) ishida tribunal sog‘liqni saqlash sohasidagi davlat choralari barqarorlashtirish majburiyatini buzish sifatida baholash mumkin emasligini ta‘kidladi [6]. Ikkinchisi – “qonuniy kutilmalar” prinsipining mustaqil himoya asosi sifatida kuchayishi. “El Paso Energy v. Argentina” (ICSID, 2011-yil) ishida tribunal qonuniy kutilmalar prinsipi barqarorlashtirish bandidan mustaqil ravishda ham investor himoyasi uchun asos bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi [7].

ICSID 2023-yilgi statistikasiga ko‘ra, 900 dan ortiq ro‘yxatga olingan nizolarning taxminan 40 foizi barqarorlashtirish yoki qonuniy kutilmalar masalasini o‘z ichiga oladi. Biroq so‘nggi o‘n yillikda tribunallar barqarorlashtirish bndlariga bevosita asoslangan ishlarda faqat 30-35 foiz hollarda investor foydasiga qaror qabul qilgan - bu ko‘rsatkich bir avlod oldingi 50-60 foizdan sezilarli pasayishni ko‘rsatadi [8]. Bu statistika zamonaviy arbitrajning barqarorlashtirish bndlarini tobora ehtiyotkorlik bilan talqin qilayotganini tasdiqlaydi.

## II. BARQARORLIK MEXANIZMLARI: RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJRIBASINING QIYOSIY TAHLILI

Investitsiya barqarorligini ta‘minlash vazifasiga rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tubdan farq qiluvchi yondashuvlar orqali maqsadga erishadi. Bu farqni tushunish O‘zbekiston uchun to‘g‘ri model tanlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

**Rivojlangan davlatlar: institutsional ishonchlilik modeli.** Rivojlangan davlatlar - ayniqsa OECD a‘zolari - investitsiya barqarorligini birinchi navbatda huquqiy tizimning umumiy sifati orqali ta‘minlaydi. Bu yondashuvning to‘rtta asosiy ustuni bor: (1) qonunchilik o‘zgarishlarida majburiy tartibga solish ta‘sirini baholash (RIA); (2) mustaqil tartibga soluvchi organlar; (3) investitsiya shartnomalari uchun aniq himoya standarti; (4) xalqaro majburiyatlarning milliy qonunchilikka ustuvorligi.

AQSh ning 2012-yil Model BITi barqarorlashtirish va tartibga solish huquqi o‘rtasidagi muvozanatni aniq formula bilan belgiladi: sog‘liq, xavfsizlik, ekologiya va moliyaviy barqarorlik sohasidagi tartibga solish choralari barqarorlashtirish

kafolatlarini buzish sifatida talqin qilinmaydi [9]. Bu model keyinchalik USMCA (2020) va boshqa zamonaviy BITlarda standart sifatida qabul qilindi.

Evropa Ittifoqi tajribasi institutsional model uchun alohida qiziqish kasb etadi. ECJ ning Achmea v. Slovakia (C-284/16, 2018) qarorida YI a‘zo davlatlari o‘rtasidagi BITlar asosida investor-davlat arbitrajiga murojaat YI huquqiga zid deb topildi [10]. Bu qaror YI doirasida investitsiya nizolari tizimini tubdan qayta qurishga olib keldi va barqarorlikni «shartnomaviy band» emas, «institutsional tizim» orqali ta‘minlash konsepsiyasini amalda mustahkamladi.

**Rivojlanayotgan davlatlar: barqarorlashtirish bandining zaruriy roli.** Rivojlanayotgan davlatlar uchun institutsional tizim yetarlicha rivojlanmagan sharoitda barqarorlashtirish bandlari huquqiy tizimning to‘liq emasligini qoplash vazifasini bajaradi. Biroq bu bandlarning amaliy samaradorligi ko‘p jihatdan ularning qanday tuzilganligiga bog‘liq. Rivojlanayotgan davlatlar tajribasida uchta asosiy model ajralib chiqadi.

Birinchi model – “qonuniy kafolatlar” modeli: davlat investitsiya qonunchiligida umumiy barqarorlik normasi belgilaydi (*O‘zbekiston, Vyetnam, Kambodja*). Ikkinchi model – “individual shartnoma” modeli: yirik loyihalar uchun alohida bitim tuziladi va barqarorlashtirish bandlari aynan shu hujjatda belgilanadi (*Ozarbayjon, Qozog‘iston, Gana*). Uchinchi model – “gibrid” model: qonunchilik asosi va individual shartnoma birgalikda qo‘llaniladi (*Hindiston 2015-yil Model BITi, Singapur*).

Hindistonning 2001-2011-yillardagi investitsiya arbitrajleri tajribasi - xususan “White Industries v. India” (2011-yil) ishi, unda Hindiston sud kechikishlari uchun mas‘ul deb topildi [11] - mamlakatni o‘z Model BITini to‘liq qayta ko‘rib chiqishga undadi. 2015-yilgi yangi Model BIT barqarorlashtirish mexanizmini “muzlatish” emas, “huquqiy kafolatlar” sifatida qayta ifodaladi va tartibga solish huquqini ekspressivroq belgiladi. Bu islohot rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim namuna bo‘ldi.

IMF tadqiqotlari ko‘rsatadiki, tartibga solish beqarorlik indeksi bir birlik oshganda, mamlakaga kirayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari o‘rtacha 7-11 foizga kamayadi. Bu raqam soliq stavkasining 1 foizga oshishidan uch barobar kuchli ta‘sirni ko‘rsatadi [12]. Demak, investitsiya barqarorligi investorlar uchun soliq imtiyozlaridan ham muhimroq omil.

### III. MILLIY TARTIBGA SOLISH TIZIMINING ZAIF TOMONLARI VA ULARNING INVESTITSIYA MUHITIGA TA‘SIRI

Barqarorlashtirish bandlarining amaliy samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillar ko‘pincha shartnomaning o‘zida emas - milliy tartibga solish tizimining zaifliklarida yotadi. Bu zaifliklarni to‘rtta asosiy guruhga ajratish mumkin.

**Shartnoma tuzilishi va talqin muammolari.** Xalqaro arbitraj amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, barqarorlashtirish bandlari bilan bog‘liq nizolarning asosiy sababi - band

matnining noaniq yoki umumlashtirilganligi. “Waste Management v. Mexico” (NAFTA, 2004) ishida tribunal barqarorlashtirish bandini mahalliy munitsipalitet qarorlariga nisbatan qo‘llab bo‘lmasligini ko‘rsatdi, chunki shartnomada qamrov aniq belgilanmagan edi [13]. UNCTAD ma‘lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan davlatlar vakillarining 60 foizdan ko‘prog‘i investitsiya shartnomasini muhokama qilishda ixtisoslashgan xalqaro yuristlar yordamisiz muzokaraga kirishgan, bu esa keng qamrovli va yurist-investor tomonidan shakllangan bandlar paydo bo‘lishiga olib kelgan [14].

**Retroaktiv qonunchilik va tartibga solish beqarorligi.** Investitsiya muhiti barqarorligiga eng jiddiy tahdidlardan biri - normativ hujjatlarning retroaktiv qo‘llanishi. OECD tadqiqotiga ko‘ra, rivojlanayotgan davlatlarning 70 foizida investitsiyaga aloqador normativ hujjatlar o‘rtasida kamida bitta tizimli ziddiyat mavjud va bunday ziddiyatlarning hal etilish muddati o‘rtacha 2,5 yilni tashkil etadi [15]. Bundan tashqari, World Bank 2020-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, 190 ta davlatdan faqat 54 tasida tartibga solish ta‘sirini baholash (RIA) yangi normativ hujjatlardan avval majburiy tartib sifatida joriy etilgan [16].

**Signal ta‘siri va kredit narxiga ta‘sir.** Investitsiya kafolatlarining buzilishi nafaqat ushbu investorga, balki butun mamlakatning investitsiya imijiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bitta investitsiya shartnomasi barqarorlashtirish bandining buzilishi mamlakaga keyingi besh yil davomida kiritilishi mumkin bo‘lgan investitsiya hajmini o‘rtacha 12-18 foizga kamaytiradi [17]. ICSID da‘vosi e‘lon qilingandan so‘ng davlatning xalqaro kredit reytingi o‘rtacha 0,3-0,5 ball pasayishi va davlat obligatsiyalarining foiz to‘lovi 15-25 bazis punktga oshishi qayd etilgan [18].

**Institutsional zaiflik: parallel yurisdiksiya va monitoring yo‘qligi.** ICSID ma‘lumotlariga ko‘ra, investor-davlat nizolarining taxminan 15 foizida parallel yurisdiksiya muammosi - milliy sud va xalqaro arbitraj bir vaqtda turli qarorlar qabul qilishi - qayd etilgan [8]. Bundan tashqari, ko‘plab davlatlarda barqarorlashtirish majburiyatlarini muntazam monitoring qilish tizimi umuman mavjud emas, natijada yangi normativ hujjat qabul qilinishida uning barqarorlashtirish kafolatiga ta‘siri oldindan baholanmaydi.

#### **IV. BARQARORLASHTIRISH BANDLARINING ZAMONAVIY HUQUQIY MODEL: BESH ELEMENTLI KONSEPSIYA**

Yuqoridagi tahlil asosida barqarorlashtirish bandlarining zamonaviy huquqiy modeli taklif etiladi. Model uchta prinsipga asoslanadi: huquqiy aniqlik, muvozanat va moslashuvchanlik. Modelning besh elementi quyidagilardan iborat.

**Element 1. Sohaviy aniqlik (sectoral precision).** Band umumiy «barcha qonunchilik» o‘rniga aniq sohalarni ko‘rsatishi lozim: soliq, valyuta, litsenziyalash. Har bir soha uchun kafolatning ko‘lami va istisnolari alohida belgilanadi.

Hindistonning 2015-yil Model BITi bu prinsipni amaliyotda eng yaxshi tatbiq etgan hujjat sifatida e'tirof etilmoqda [19].

**Element 2. Muddatga bog'liqlik (temporal calibration).** Kafolat muddati loyihaning kapital qoplash muddatiga (*payback period*) mutanosib bo'lishi kerak. Yirik infratuzilma uchun 15-20 yil, o'rta sanoat loyihalari uchun 7-10 yil, kichik loyihalar uchun 3-5 yil. Muddatsiz "freeze" bandlari zamonaviy standartlar bo'yicha texnik jihatdan ham, siyosiy jihatdan ham asossiz hisoblanadi.

**Element 3. Kompensatsiya mexanizmi (compensation trigger).** "Muzlatish" o'rniga kompensatsiya mexanizmi: davlat o'zgartirish kiritishi mumkin, biroq investor prognoz daromadi belgilangan chegara miqdoridan (*masalan, 15 foizdan*) ortiq kamaysa, farqni qoplashi shart. Chegara ob'ektiv asosda - mustaqil auditor tomonidan - belgilanadi. Bu formula "Aminoil v. Kuwait" arbitraj qaroridan kelib chiqib, zamonaviy amaliyotda keng qo'llanilmoqda [4].

**Element 4. Istisnolar ro'yxati (carve-out list).** Standart istisnolar: inson huquqlari va mehnat standartlarini yaxshilash, ekologik favqulodda holat choralari, jamoat sog'ligini himoya, moliyaviy barqarorlik ta'minoti, BMT Xavfsizlik Kengashi qarorlari. Bu ro'yxat BMT Biznes va inson huquqlari yo'riqnomalari (2011-yil) ning 9-printsipli va OECD Multinational Enterprises Guidelines (2023-yil) talablariga to'liq mos keladi [20].

**Element 5. Renegotiatsiya mexanizmi (adaptive clause).** Tomonlarga "muhim o'zgarish" holatlari uchun oldindan tartib belgilanadi: 30 kunlik muloqot bosqichi, 90 kundan oshmaydigan muzokaralar, shundan keyingina arbitraj. Bu mexanizm I. Macneilning relational contract nazariyasiga asoslanib, shartnomani "tirik munosabat" sifatida ko'rib chiqadi [21].

## V. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI UCHUN AMALIY TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston Respublikasi uchun qonunchilik, shartnomaviy va institutsional darajada quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Qonunchilik darajasida:** "Investitsiya faoliyati to'g'risida" gi Qonunning 19-moddasini zamonaviy model besh elementi bilan boyitish; Soliq kodeksiga investitsiya shartnomalaridagi soliq barqarorlashtirishsi bandlarini tan oluvchi maxsus norm kiritish; UNCITRAL Shaffoflik qoidalari (2014-yil) ga qo'shilish va barcha investor-davlat arbitraj qarorlarini ommaga e'lon qilishni majburiy qilish. Bu choralar O'zbekistonning 50 dan ortiq amaldagi BITi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.

**Institutsional darajada:** Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi qoshida barqarorlashtirish majburiyatlarini monitoring qiluvchi maxsus bo'linma tashkil etish; Investitsiya ombudsmani vakolatini barqarorlashtirish masalalarini ko'rib chiqishga kengaytirish (*ombudsman qaroriga 60 kun ichida e'tiroz bildirilmasa, ijrosi majburiy qilish*); iqtisodiy sudlar qoshida xalqaro investitsiya huquqi bo'yicha ixtisoslashgan sudyalari kollegiyasini shakllantirish.

**Xalqaro integratsiya darajasida:** UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, 2010-yilgacha tuzilgan BITlarning 65 foizida tartibga solish huquqi va barqaror rivojlanish normalari yetarlicha aks ettirilmagan [22]. O'zbekiston BITlari portfelini bosqichma-bosqich yangilash dasturini ishlab chiqish va yangi BITlarda taklif etilgan modelning besh elementini standart qoidalar sifatida kiritish tavsiya etiladi. UNCTAD yoki OECD texnik yordam dasturlarini bu jarayonga jalb etish standartlarga muvofiqlikni ta'minlaydi.

UNCTAD World Investment Report 2023 ma'lumotlariga ko'ra, O'rta Osiyo mintaqasiga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarining 68 foizi Qozog'iston ulushiga to'g'ri keladi, O'zbekiston esa 16 foiz bilan ikkinchi o'rinda turadi [23]. Taklif etilayotgan modelni amalga oshirish O'zbekistonga mintaqaviy investitsiya ulushini hozirgi 16 foizdan 25-30 foizga oshirish imkonini beradi, bu esa yiliga 2-3 mlrd dollarga qo'shimcha to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyasi demakdir.

### **XULOSA**

Birinchiidan, barqarorlashtirish bandlari doktrinasini uchta davrni bosib o'tdi: mutloq kafolat (1970-1985), muvozanat yondashuvi (1985-2005) va barqaror rivojlanish bilan integratsiya (2005-hozir). Hozirgi standart bo'yicha tribunal barqarorlashtirish bandini mutloq himoya qalqoni sifatida talqin qilmaydi - balki tomonlar majburiyatlarini muvozanatlashtirishning vositasi sifatida ko'radi.

Ikkinchiidan, rivojlangan davlatlarning «instituttsional ishonchlik» modeli barqarorlikni shartnomaviy band emas, balki huquqiy tizimning o'zi ta'minlaydigan sifat darajasiga ko'tarish yo'lini ko'rsatadi. Rivojlanayotgan davlatlar uchun esa barqarorlashtirish bandlari hali ham zaruriy vosita bo'lib qolmoqda - biroq ularni zamonaviy standartlarga mos tarzda shakllantirish shart.

Uchinchiidan, milliy tartibga solish tizimidagi zaifliklar - retroaktiv qonunchilik, RIA tizimining yo'qligi, parallel yurisdiksiya va monitoring mexanizmlarining yetishmasligi - investitsiya muhitiga shartnomaviy band buzilishidan ko'ra chuqurroq va uzoqroq davom etuvchi salbiy ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchiidan, taklif etilayotgan besh elementli zamonaviy model - sohaviy aniqlik, muddatga bog'liqlik, kompensatsiya mexanizmi, istisnolar ro'yxati va renegotiatsiya tartibi - O'zbekiston Respublikasining hozirgi huquqiy tizimi doirasida qo'llanishi mumkin va mavjud qonunchilikni takomillashtirish orqali amalga oshirilishi realistik.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. UNCTAD. International Investment Agreements Navigator. Available at: <https://investmentpolicy.unctad.org> (murojaat: 2024).
2. Texaco Overseas Petroleum Co. v. The Government of the Libyan Arab Republic. Award on the Merits, 19 January 1977. 53 ILR 389 (1979). Para. 70-78.
3. UN General Assembly. Charter of Economic Rights and Duties of States. Resolution 3281 (XXIX). 12 December 1974. Art. 2.
4. Government of Kuwait v. American Independent Oil Co. (Aminoil). Award, 24 March 1982. 21 ILM 976. Para. 90-95.
5. Methanex Corporation v. United States of America. NAFTA/UNCITRAL. Final Award, 3 August 2005. Part IV, Chapter D, Para. 7.
6. Philip Morris Brand Sàrl et al. v. Oriental Republic of Uruguay. ICSID Case No. ARB/10/7. Award, 8 July 2016. Para. 302-307.
7. El Paso Energy International Company v. The Argentine Republic. ICSID Case No. ARB/03/15. Award, 31 October 2011. Para. 349-352.
8. ICSID. Caseload - Statistics (Issue 2023-2). Washington D.C.: ICSID, 2023. P. 7-22.
9. US Department of State. 2012 U.S. Model Bilateral Investment Treaty. Art. 12-14. Available at: <https://www.state.gov/model-bilateral-investment-treaty>
10. Court of Justice of the European Union. Achmea B.V. v. Slovakia. Case C-284/16. Judgment, 6 March 2018. ECLI:EU:C:2018:158. Para. 56-60.
11. White Industries Australia Limited v. The Republic of India. UNCITRAL. Final Award, 30 November 2011. Para. 11.2.1-11.2.4.
12. IMF. World Economic Outlook: Uncertainty and Policy Trade-Offs. Washington D.C.: IMF, 2023. P. 87-96.
13. Waste Management Inc. v. United Mexican States (No.2). ICSID Case No. ARB(AF)/00/3. Award, 30 April 2004. Para. 71-74.
14. UNCTAD. Investor-State Dispute Settlement: Review of Developments in 2022. IIA Issues Note. Geneva: UNCTAD, 2023. P. 9-11.
15. OECD. Reducing Regulatory Complexity: The Role of Administrative Simplification. Paris: OECD Publishing, 2019. P. 34-41.
16. World Bank. Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies. Washington D.C.: World Bank, 2020. P. 5-13.
17. Allee T., Peinhardt C. Contingent Credibility: The Impact of Investment Treaty Violations on FDI // International Organization. 2011. Vol. 65 (3). P. 401-432.
18. Alvik J.C. Contracting with Sovereignty: State Contracts and International Arbitration. Oxford: Hart Publishing, 2011. P. 147-173.
19. Ministry of Finance, Government of India. 2015 Model Bilateral Investment Treaty. New Delhi. Art. 3, 5, 14.
20. UN Human Rights Council. Guiding Principles on Business and Human Rights. A/HRC/17/31. Geneva: UN, 2011. Principle 9; OECD. Guidelines for Multinational Enterprises on Responsible Business Conduct. Paris: OECD, 2023. P. 49-62.
21. Macneil I.R. Contracts: Adjustment of Long-Term Economic Relations // Northwestern University Law Review. 1978. Vol. 72 (6). P. 854-905.
22. UNCTAD Investment Policy Hub. International Investment Agreements: Key Issues. Geneva: UNCTAD, 2022. P. 34-41.
23. UNCTAD. World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All. Geneva: UN, 2023. Regional Annex: Central Asia. P. 213-224.